



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2021-yil 13-dekabr

518-son

Toshkent sh.

**Xotin-qizlar masalalari bo'yicha  
dekan maslahatchilari faoliyatini  
tuzish to'g'risida**

Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning ta'lif sohasi va ilm-fandagi o'rnini kengaytirish, davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'mi va mavqeyini yanada mustahkamlash, ta'lif muassasalarida xotin-qizlar o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish tizimini yanada kuchaytirish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. Barcha oliy ta'lif muassasalardagi fakultet xotin-qizlar kengashi raislari xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi (jamoatchilik asosida) etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Hududiy boshqarmalar boshliqlari, oliy ta'lif muassasalari rektorlari va filiallar, akademik litseylar direktorlariga:

Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari, dekan maslahatchilari bo'lgan professor-o'qituvchilarini talaba-qizlar odob-axloqi bilan shug'ullanishga, suhabat qilishga ko'proq vaqt ajratishini ta'minlash maqsadida ulardag'i dars yuklamalarini kamaytirish;

Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari, dekan maslahatchilari uchun ustama haq to'lanishini ta'minlash;

dekan maslahatchisi nomzodlarini ta'lif muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi tavsiyasiga muvofiq tayinlanishi belgilab qo'yilsin.

3. Xotin-qizlar maslahat kengashi raislariga:

xotin-qizlar bilan manzilli ishlash tizimini takomillashtirish;

ijarada va talabalar turar joylarida yashayotgan talaba-qizlar bilan alohida suhabatlar o'tkazib borish, tyutorlar bilan hamkorlikda ishlash tizimini kuchaytirish;

dekan maslahatchilari faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqish, faoliyati qoniqarli bo'limgan dekan maslahatchilari o'rniga boshqa munosib nomzodlarni almashtirish choralarini ko'rsin.

4. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashlari to'g'risidagi Namunaviy nizomga o'zgartirishlar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
5. Ushbu buyruq ijrosi nazorati vazirning birinchi o'rinososari K.Karimov zimmasiga yuklatilsin:

Vazir



A. Toshkulov

**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimidagi  
Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha Maslahat kengashlari to‘g‘risida  
NAMUNAVIY NIZOM**

**I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Mazkur Namunaviy nizom (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimidagi **Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha Maslahat kengashlari** (keyingi o‘rinlarda – Maslahat kengashlari) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini mazkur Nizomga muvofiq tasdiqlangan ish reja asosida tashkil etish tartibini belgilaydi va shu bo‘yicha ish olib boradi.

2. Maslahat kengashlari xotin-qizlarni ijtimoiy siyosiy qo‘llab quvvatlovchi, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlarida o‘z aksini topgan ijtimoiy siyosiy kafolatlarning amalga oshirilishiga ko‘maklashuvchi jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi Maslahat kengashi hisoblanadi

3. Maslahat kengashlarining tarkibi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari, ta’lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlarining yig‘ilish qarorlari bilan tashkil etiladi hamda unga kiritiladigan o‘zgartishlar yig‘ilish raisi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Maslahat kengashlarining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

5. Maslahat kengashlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining me’yoriy hujjatlariga, mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Maslahat kengashlari qonuniylik, kollegiallik, oshkorlik, o‘zaro hamkorlik va hurmat, teng huquqlilik, ixtiyorilik va jamoatchilik fikrini hisobga olish tamoyillari asosida faoliyat yuritadi.

**II. MASLAHAT KENGASHLARINING ASOSIY VAZIFALARI VA  
FUNKSIYALARI**

7. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minalash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish ishlarini hamkorlikda tashkil etadi;

- xotin-qizlarning mehnat jamoalarida, davlat va jamoat boshqaruvi sohasidagi rolini kuchaytirish, ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi maqsadli ishlarni tashkil etishga ko‘maklashish va ularning fikrlarini tizimli monitoring qilish;

- xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish, rehabilitatsiya vositalari bilan ta’minalash ishlariga ko‘maklashadi;

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, oilalarni mustahkamlash, erta nikoh va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordamlashadi;

talaba qizlarning huquqiy madaniyatini va savodxonligini oshirib borish ishlarida faol ishtirok etadi

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi va tegishli takliflar ishlab chiqadi;

- xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini monitoring qiladi, zo'ravonlikdan jabrlanganlarni aniqlash, ularni reabilitatsiya qilish, huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyaviy takliflarni vazirlikka kiritadi;

- xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni ijtimoiy faollikka yo'naltirish, ular o'rtasida ijtimoiy foydali mehnat turi bilan shug'ullanadigan, ibrat namunasiga ega bo'lgan xotin-qizlarning hayot faoliyatlari va turmush tarzlarini keng targ'ib qilish;

- xotin-qizlar o'rtasida turli ko'rik-tanlovlар va sport musobaqalarini o'tkazish, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzodlarni tanlashda qonuniylik, ijtimoiyadolat, shaffoflik tamoyillariga rioya etilishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- milliy va xalqaro qonunchilikda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga doir xujjatlar, standartlar va talablarning joriy etilishini ta'minlaydi va bevosita ishtirok etadi;

- tizimida samarali mehnat qilayotgan ayol xodimlarni Davlat mukofotlariga tavsiya etish bo'yicha taklif kiritadi;

-ta'lif muassasasidagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisini tayinlaydi, faoliyatini nazorat qiladi.

### **III. MASLAHAT KENGASHLARINING MAJBURIYATLARI**

8. Maslahat kengashlari o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

- o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshirish;

- jamoatchilik nazorati to'g'risidagi Qonun hujjatlari talablariga rioya etish;

- fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymaslik;

9. Maslahat kengashlari Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **IV. MASLAHAT KENGASHLARINING HUQUQLARI**

10. Maslahat kengashlari quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning totuvligi va farovonligi mustahkmlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni voyaga

yetkazish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish va milliy qadriyatlarni keng targ‘ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash yuzasidan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga takliflar kiritish;

- Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga Maslahat kengashlari vakolatiga kiramagan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

- zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim muassasasida xotin-qizlar o‘rtasida turli ko‘rik-tanlovlari va sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish;

- ta’lim muassasasidagi xotin-qizlar, ayniqsa yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning roziligi bilan ularning uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlari bilan tanishish;

- Maslahat kengashlari majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

- yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish, zarur hollarda ularga davlat organlari va jamoat tashkilotlari mas’ul xodimlarini hamda mahalla faollarini taklif etish.

11. Maslahat kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

## **V. MASLAHAT KENGASHLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI**

12. Maslahat kengashlarini belgilangan tartibda kengash raisi boshqaradi.

13. Maslahat kengashlari raislari xotin-qizlarning yashirin ovoz berish yo‘li bilan uchdan ikki qismining bergen ovozi bilan saylanadi.

14. Maslahat kengashlarining tarkibi har 3 yilda tasdiqlanadi va 10-21 nafar a‘zodan iborat tarkibda shakllantiriladi

15. Maslahat kengashlarining raislari:

- Maslahat kengashlarining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

- Maslahat kengashlarining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi, majlisga raislik qiladi;

- Maslahat kengashlarining ish rejalarini, majlis bayonnomalarini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi, majlis Qarorlarining ijrosini nazorat qiladi.

16. Dekan maslahatchilar:

-talaba qizlarning huquqiy madaniyatini va savodxonligini oshirish borish ishlarda faol bo‘ladi;

-mehribonlik uylarida tarbiyalangan qizlar bilan alohida manzilli ishlarni amalga oshiradi;

- ijodkor, ilmiy-tadqiqot bilan shug‘illanishni istagan talaba-qizlar, pedagog-xodimlar bilan hamkorlikni kuchaytiradi;

-talaba qizlar orasida turli noxush holatlar (psixotrop moddalar, jioyatchilik, o‘z joniga qasd qilish, turli oqimlar ta’siriga tushib qolish, odam savdosi)ning oldini olish, oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash, oila muqaddasligi borasida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda tushuntirish ishlarni muntazam tarzda olib borish, yuqidagi salbiy xarakteri aniklangan xotin- kizlarning ruyxatini ommadan yashirin xolatda shakllantirish, ushbu xolatdan ta’lim muassasasi rahbariyatini ogox kiladi;

-Xotin-qizlar maslahat kengashi raisiga bo‘ysinadi, har oy yakuni bo‘yicha amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobot taqdim etadi.

17. Maslahat kengashlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi;
18. Maslahat kengashlarining raisi bo‘limgan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o‘rnibosari bajaradi.
19. Maslahat kengashlarining majlisi ish reja asosida har oyda kamida bir marta chaqiriladi;
  - Maslahat kengashlari raisining tashabbusi yoki maslahat kengashlari a’zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirish nazarda tutiladi.
20. Maslahat kengashlarining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, mahalla faollari taklif etilishi mumkin.
21. Maslahat kengashlarining majlisida qabul qilingan Qaror bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.
22. Maslahat kengashi raisi oliy ta’lim muassasasi ilmiy kengashi a’zosi sifatida yiliga bir marta hisobot beradi.

## **VI. MASLAHAT KENGASH RAISI MAQOMI**

23. Maslahat kengashi raisi rektor (direktor)ning “Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi” maqomiga, fakultet xotin-qizlar kengashi raisi “dekan maslahatchisi” maqomiga ega.
24. Maslahat kengashi raisi uchun alohida xona ajratish, kompyuter, telefon, internet tarmog‘i va boshqa jihozlar bilan ta’minalash hamda o‘rnatilgan tartib asosida ish haqiga qo’shimcha ustama belgilash orqali moddiy rag‘batlantirib borish choralarini ko‘riladi.

## **VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

25. Maslahat kengashlarining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta’minalash qonun hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan amalga oshiriladi.
26. Maslahat kengashlarining faoliyati uning nizomiga va O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq holda amalga oshirilishi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.

«ТАСДИҚЛАЙМАН»  
Ўзбекистон Республикаси

Олий ва ўрта махсус таълим вазири

А.Тошкулов

23 ноябрь 2021 йил

Ўзбекистон Республикаси

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг

2021 йил 23 ноябрда ўтказилган видеоселектор йигилишининг  
6-сон баёни

Тошкент шаҳри

2021 йил 23 ноябрь

Раислик  
қилди:

- А.Х.Тошкулов — Олий ва ўрта махсус таълим  
вазири

Қатнашдилар: - Р.Хакимов, С.Бузрукхонов, Ю.Абсоатов – вазир  
ўринbosарлари.

Таклиф  
қилингандар:

- Бошқарма ва бўлим бошлиқлари, вазирлик  
таркибидаги ташкилот раҳбарлари (рўйхат бўйича)  
- Республика олий таълим муассасалари  
ректорлари ва директорлари, ёшлар масалалари  
ва маънавий-маърифий ишлар бўйича  
проректорлари ҳамда ёшлар билан ишлаш,  
маънавият ва маърифат бўлими бошлиқлари ва  
ходимлари, деканлар ва декан ўринbosарлари,  
хотин-қизлар бўйича кенгашлар

### КУН ТАРТИБИ

1. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тизимида, хусусан,  
олий таълим муассасаларида ёшлар масалалари ва маънавий-  
маърифий ишларни янада такомиллаштириш ҳамда бу борадаги  
мавжуд муаммолар тўғрисида.

2. Олий таълим муассасаларида ижтимоий-маънавий мухит  
барқарорлигини таъминлашдаги асосий муаммоларни ҳал этиш  
йўллари.

3. Турли масалалар.

(А.Тошкулов, Р.Хакимов, С.Бузрукхонов, А.Шодмонов, О.Абдураҳмонов, А.Тошкулов)

Йигилишда Олий ва ўрта махсус таълим вазири А.Тошкулов ўз  
сўзида вазирлик тизимида, хусусан, олий таълим муассасаларида  
ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишларни янада  
такомиллаштириш ҳамда бу борадаги мавжуд муаммоларга тўхталиб  
ўтди.

Бунда асосий эътиборни, таълим сифатини оширишга, олий таълим муассасаларида фаолият кўрсатаётган ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича проректорлар ва бўлим ходимлари, психологлар, тьюторлар фаолиятига ва талабалар ҳаётига қаратди.

Бундан ташқари ҳисобот сўраш тизимининг эскирганлиги, смета бўйича маънавий тадбирларга ажратилган маблағларнинг ўзлаштирилмаётганлиги, мажуд жамғармадан талабаларга рағбат маблағлари берилмаётганлиги, яхши ўқиётган талабаларга фахрий ёрлик ҳамда қўшимча стипендиялар жорий этилмаганлиги қаттиқ танқид қилинди.

Кун тартибидаги масалалар юзасидан мажлис иштирокчилари томонидан билдирилган фикр-мулоҳазалар ва таклифлардан келиб чиқиб йиғилиш

### **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Олий таълим муассасалари томонидан ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича олиб борилаётган ишлар талаб даражасида эмаслиги кўрсатиб ўтилсин.

2. Олий таълим муассасалари ректорлари ва филиаллар директорларига:

**таълим муассасаларида ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўлими ходимлари ойлик маошига устама ҳақ белгилаш бўйича бир хафта муддатда вазирликка таклиф киритиш;**

**маънавият ва маърифат масалаларига бағишланган тадбирларга смета бўйича ажратилган маблағларни жорий йилнинг 10 декабрь кунига қадар ўз йўналишлари бўйича ўзлаштириш чораларини кўриш;**

**талабада мустақил фикрлаш, қарор қабул қилиш кўникма ва қобилиятларини ошириб бориш, ўтказилаётган маънавий-маърифий тадбирларни талабаларнинг қизиқишлидан келиб чиқиб доимий ташкил қилиш;**

**факультет Хотин-қизлар маслаҳат Кенгashi раисига декан маслаҳатчиси мақомини бериш ҳамда Хотин-қизлар маслаҳат Кенгashi раиси бўлган профессор-ўқитувчиларни талаба-қизлар одоб-ахлоқи билан шуғулланишга, сухбат қилишга кўпроқ вақт ажратишини таъминлаш мақсадида улардаги дарс юкламаларини камайтириш ҳамда ойлик маошларига устама ҳақ тўлаб бериш чораларини кўриш;**

**барча талабаларнинг яшаш шароитларини икки хафта муддатда ўрганиш ва шу асосида уларни қизил, яшил сарик ҳудудларга бўлиб, ҳудуддаги ночор аҳволда яшаётган талабаларни тьюторлар томонидан алоҳида назоратга олинишини таъминлаш, шунингдек, олий таълим муассасаси орқали маънавий ҳам моддий ёрдамлар бериш орқали қизил ҳудуддан чиқариш чораларини кўриш;**

талаба-ёшларнинг бўш вақтларини банд қилиш мақсадида Тошкент давлат юридик университети тажрибаси мисолида йил давомида ўтказиладиган тадбирлар юзасидан “Маънавият-календари”ни икки хафта муддатда ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш;

тадбирларда фаол иштирок этиб келаётган талабаларнинг интилишини янада ошириш мақсадида уларга талабаларни ривожлантириш жамғармасидан олти ойлик, уч ойлик, бир марталик стипендиялар бериш амалиётидан кенг фойдаланишни таъминлаш;

**3. Вазир ўринбосари Ю.Абсоатов, Маънавий-ахлоқий тарбия бошқармаси бошлиғи О.Базаровга:**

факультет Хотин-қизлар маслаҳат Кенгаши раисига декан маслаҳатчиси мақомини бериш юзасидан бир хафта муддатда буйруқ лойиҳасини киритиш;

яхши ўқиган ва фаол талабаларни рағбатлантириш мақсадида бир хафта муддатда вазирнинг “Фахрий ёрлиги” ҳамда “Рағбат стипендияси” берилишини йўлга қўйиш бўйича Низомини ишлаб чиқиш ҳамда 2022 йил 1 январдан амалиётга татбиқ этиш бўйича таклиф киритиш;

**икки хафта муддатда олий таълим муассасаларидан ҳисобот олиш тизимини ихчамлаштириш** (сайт орқали қабул қилиш) механизмини ишлаб чиқиш ва раҳбариятга таклиф киритиш вазифалари юклансин.

**4. Вазир ўринбосари С.Бузрукхонов, Ички аудит ва молиявий назорат бошқармаси (С.Тошматов) жорий йилнинг 1 декабряга қадар барча олий таълим муассасалари бўйича талабаларни рағбатлантириш фондидан сарфланган маблағлар бўйича асосли маълумот киритсин;**

**жорий йилнинг 5 декабряга қадар ёшлар масалалари, маънавият ва маърифат бўлимлари ходимларининг ойлик маошларига белгиланган тартиб асосида устами ҳақлар белгилаш ва тўлаш бўйича таклиф тайёрласин.**

**5. Вазирликнинг Ахборот хизмати “Ота-оналар ўз фарзандларининг билим олиши, юриш-туриши ва яшаш шароитларидан хабар олиши кераклиги ҳақида”ги мавзуда оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда 30 дақиқалик кичик видеороликлар орқали тартиб қилсин.**

**6. Мазкур баённинг ижросини самарали ташкил қилишга ҳамда умумлаштиришга масъул этиб Маънавий-ахлоқий тарбия бошқармаси бошлиғи О.Базаров белгилансин.**

Баённинг ижросини назорат қилишни ўз зиммамда қолдираман.

**Хайъат котиби**

**Д. Маткабулова**